

ITALYAN TILIDAGI GAZETA VA JURNAL MATNLARIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Vasliddinova Gulmira Rustam qizi

O‘ZDJTU 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: B. Ergashova

gulmirarustamqizi@gmail.com

Annotatsiya: *Barchamizga ma’lumki, dunyodagi barcha tillarning asosini so‘z tashkil etadi. Shuningdek insonlarning nutqi, badiiy asarlar hamda publitsistik asarlar ham aynan shu so‘zlarning qo‘llanilishiga bog‘liq. Nutqimizning ravon bo‘lishi uchun so‘z boyligimiz ko‘p bo‘lishi va sinonim so‘zlarni qo‘llashimizga bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu maqolamizda aynan publitsistik uslubda, “Corriere della Sera” jurnalida qo‘llanilgan italyanacha sinonim so‘zlarni stilistik tahlil qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *vazifaviy uslub, publitsistik uslub, sinonimlar, matbuot uslubi, dominant sinonim so‘zlar, janrlarning xilma-xilligi, qisqalik.*

Tildagi so‘zlar bir yoki bir necha ma’noda bo‘lishi mumkin. Ularning qay birini qo‘llash, ularning o‘zgarib turishi, nutq uchun qaysi ma’noning xosligini aniqlashda ma’noviy me’yorga suyaniladi. Bunda tildagi izohli, bir necha tilli, atamalar lug‘atlarining ahamiyati katta bo‘ladi. Tildagi so‘zlarni noo‘rin qo‘llash uslubiy xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

A. Shomaqsudov va boshqalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili stilistikasi” (Toshkent, 1983 y.) darsligida o‘zbek tili vazifaviy uslublarning beshta turi (so‘zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik stil, badiiy stil) mavjudligi ko‘rsatib berilgan va bu uslublarning leksik, grammatik xususiyatlari ochib berilgan.

Shu fikr tarafdorlari bo‘lgan X. Donyorov va B. Yo‘ldoshevlar ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida vazifaviy uslublarning beshta turi mavjud degan fikrni bildiradilar: a) ilmiy uslub, b) rasmiy ish qog‘ozlari uslubi; d) publitsistik uslub; e) og‘zaki so‘zlashuv uslubi.

Akademik V.V. Vinogaradov tilning eng muhim uch xil ijtimoiy vazifasiga (aloqa, xabar, ta’sir etish) asoslanib, vazifaviy uslublarning muomala uslubi aloqa vazifasiga; rasmiy, rasmiy hujjat va ilmiy uslublar xabar vazifasiga; publitsistik va badiiy uslub ta’sir vazifasiga xoslanganligini ko‘rsatib beradi.

Ushbu maqolamiz orqali italyan tilidagi publitsistik matnlarda qo‘llanilgan sinonimlarning stilistik tahlilini ko‘rib chiqamiz. Publitsistik uslub vazifaviy uslubning bir turi bo‘lib, u ijtimoiy, siyosiy so‘z va iboralarning qo‘llanishi, janrlarning xilma-xilligi, bundan tashqari, til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi kabi belgilar bilan xarakterlanadi.

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, matbuotda, ommaviy axborot vositalaridagi siyosiy chiqishlarda, majlislardagi nutqlar va shu kabilarda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ‘ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi bilan kishilar ongiga ko‘proq ta’sir etadi.



Yana bir tilshunos olim S.Muhamedov publitsistik uslublarning quyidagi tasnifini taklif etadi: publitsistik stilga asosan, gazeta matnlari kirib, tematika jihatidan juda kengdir. Bu funksional stil: a) mamlakat siyosiy va sotsial hayoti (bosh maqolalar, ichki siyosat, doklad, nutq va boshqalar); b) chet el xabarlari (siyosiy va iqtisodiy); v) iqtisodiyot (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqalar); g) fan va texnika (ilmiy yangiliklar, har xil sohalardagi texnika yutuqlari va hakozi); d) madaniyat va san‘at (teatr, kino xabarlari, muzika va rassomchilik asarlariga taqrizlar va boshqalar); e) reportaj, pamflet, ocherk va yakozoz; j) jismoniy tarbiya va sport xabarlaridan iborat.

Publitsistik uslub vazifaviy uslubning bir turi bo‘lib, u ijtimoiy, siyosiy so‘z va iboralarning qo‘llanishi, janrlarning xilma-xilligi va buning natijasida til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi va shu kabi belgilar bilan xarakterlanadi.

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, vaqtli matbuotda, siyosiy chiqishlarda, majlislardagi nutqlar va shu kabilarda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ‘ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi bilan kishilar ongiga ko‘proq ta‘sir etadi.

Publitsistik uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik asosiy o‘rinni egallaydi, ya‘ni qisqa, lo‘nda, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi. Publitsistik uslub ba‘zi qo‘llanma va ilmiy adabiyotlarda “ommabop uslub”, “matbuot uslubi” kabi atamalar bilan ham nomlanadi.

Sinonimiyaning birligi bir umumiy ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlardir, ya‘ni, sinonimlardir. Sinonim so‘zlar shunchaki xashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir. Sinonimlar so‘zning ma‘noli shakllaridan biri bo‘lib, talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma‘nosi bir xil bo‘lgan qo‘shimcha ma‘no nozikligi, emotsion ma‘nosi qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlar deyiladi.

Publitsistik uslubda so‘zlovchi yoki yozuvchi so‘z tanlash va qo‘llashda rasmiy ish qog‘ozlar uslubi talablaridan kelib chiqib, fikr ifodalaydi. Rasmiy mazmundagi yozma matnlarda shu uslubga xos bo‘lgan xususiyat, ya‘ni fikrlarni ma‘lum bir qolipga solib ifodalash kuchli bo‘ladi, ya‘ni sinonim so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olish juda muhim ahamiyatga egadir.

Italyan tilidagi *dire* - aytmoq, *raccontare* - aytib bermoq, *parlare* - gapirmoq, *informare* - xabar(ma‘lumot) bermoq, *fare sapere* - bildirmoq fe‘llari sinonim hisoblanib, biz publitsistik matnlarda ko‘p hollarda *informare* - xabar bermoq shaklini uchratishimiz mumkin, masalan: *Corriere della Sera* che la rivista informa agli avvenimenti politici, economici e sociali della vita italiana.(*Corriera della Sera* iitalyanlar hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqealardan xabardor qiluvchi jurnal hisoblanadi)

Colpa – ayb odob-axloq me‘yorlariga xilof ish, uslubiy jihatdan barcha uslubda qo‘llaniladi, masalan: *Se nascondi il senso di colpa, la febbre lo rivelerà.* - Aybini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.

Peccato – gunoh shariat qonuniga va diniy aqidalarga xilof xatti-harakat, badiiy uslubda faol qo‘llaniladi, masalan: *Mentire è il peccato più grande.* - Yolg‘on so‘zlash eng katta gunohdir.



Crimine – jinoyat davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakatni ifodalovchi so‘z, rasmiy, badiiy va publitsistik uslubda faol qo‘llaniladi, masalan:

Ochiq – apertamente ma‘nodosh so‘zlar ichida faol qo‘llaniladi, uslubiy betaraf, masalan: *Esprimi apertamente la tua opinione, non lasciare spazio a dubbi.* - Fikringizni ochiq tarzda bayon eting, gumonga o‘rin qoldirmang.

Oshkor qilingan – rivelato asosan rasmiy hamda publitsistik uslubda qo‘llaniladi. Il piano Trump non è ancora stato reso pubblico. Ma nelle ultime settimane la stampa anglosassone ne ha anticipato alcuni elementi, rivelati per lo più dal vicepresidente James David Vance – Tramp rejasi hozircha oshkor etilmagan. Ammo so‘nggi haftalarda anglo-sakson matbuoti vitse-prezidenti Jeyms Devid Vens tomonidan oshkor qilingan ba‘zi elementlarni kutmoqda. Quyida italiyalik mashhur jurnalist Farian Sabahi tomonidan Corriera della sera nashriga tayyorlangan, O‘zbekistondagi parlament saylovlari to‘g‘risidagi maqoladan parcha keltiramiz va tahlil qilamiz.

Domenica 27 ottobre i cittadini dell’Uzbekistan **andranno alle urne** per eleggere il nuovo Parlamento (Oliy Majlis) e le giunte regionali (kengash). Il nuovo sistema e-saylov permette di votare on-line, mentre per i residenti all’estero è stato possibile il voto anticipato- Yakshanba 27 oktabr kuni O‘zbekiston fuqarolari Oliy Majlis va mahalliy kengash deputatlarini saylash uchun **saylov qutilariga yuzlanadilar**. Yangicha tizim e-saylov masofaviy ovoz berish imkonini beradi, shunda xorijdagi O‘zbekiston fuqarolari muddatidan oldin ovoz bera oladilar. Bu o‘rinda andranno alle urne- saylov qutilariga yuzlanadilar birikmasini o‘rniga eleggono-saylaydilar so‘zini qo‘llash ham mumkin edi, ammo birinchi birikma matnning rasmiy va siyosiylikini yanada boyitib ko‘rsatmoqda. Ikkinchi misolda esa, è stato possibile il voto anticipato- muddatidan oldin ovoz bera oladilar, bu yerda ham avranno la possibilita’- imkoniga ega bo‘ladilar, deb aniq nisbat ham qo‘llash mumkin edi, lekin bu turdagi matnlarda majhul nisbat ko‘proq qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, professional terminologiyaning mavjudligi va uning qo‘llanishi shart qilib qo‘yilganligi bu uslubni boshqa vazifaviy uslublardan ajratib turadi.

Tilning vazifaviy uslublari bo‘yicha kuzatishlar olib borgan tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov va boshqalar publitsistik uslub haqida fikr yuritar ekanlar, uning bir qator grammatik xususiyatlarini ko‘rsatib bergan edilar, ya‘ni bunda ular bu uslubda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, odatda otlarning olmosh bilan almashtirilmasligini, fe‘lning ishlatilishi boshqa uslublarga qaraganda farqlanib turishini, bu uslubda uyushiq bo‘lakli sodda gaplar keng qo‘llanilishini misollar yordamida tushuntirib berganlar. Biz ham mazkur maqolamizdagi misollar orqali italyan tilidagi publitsistik matnlarda ham shu belgilar mavjudligining guvohi bo‘ldik.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Corriere della Sera. Italiyaning kundalik nashrlaridan biri.
2. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Y. - Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 1992. B. 81-82.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov X. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 30-b
4. Qo‘ng‘urov R., Karimov S., Qurbonov T. O‘zbek tilining funksional stillari. Samarqand, 1984